

Fransuz va o'zbek tillarida sinonimlarning qiyosiy tadqiqi

Mamajonova Muxayyo Maxamadjon qizi
mamajonovamuxayyo7@gmail.com
O'zDJTU o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada fransuz va o'zbek tillaridagi sinonimlar tizimi o'rganilgan. Sinonimlar, ya'ni ma'nosi bir-biriga yaqin yoki bir xil bo'lgan so'zlar, tilning leksik boyligini oshirishda va muloqotni aniqroq va rang-barang qilishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada sinonimlarning semantik va stilistik jihatlari, ularning kontekstga qarab qanday ishlatilishi va ikki til o'rtasidagi o'xshashliklar hamda farqlar keltirilgan. Fransuz va o'zbek tillaridagi sinonimlar tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, har bir til o'z semantik va uslubiy farqlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, maqolada sinonimlar tahlilini o'rganishda tilshunoslarning yondashuvlari va metodologik jihatlari ham ko'rib chiqilgan. Ushbu tadqiqot ikki til o'rtasidagi leksik o'xshashliklar va farqlarni aniqlashda yordam beradi va tilshunoslik sohasidagi yangi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: leksika, sintaksis, semantika, so'z birikmalari, sinonimiya ichki til ekvivalentlik, adabiy til, terminologiya, qiyosiy tahlil, semantik o'xshashlik va farqlar

Сравнительное исследование синонимов в французском и узбекском языках

Мамажонова Мухайё Махамаджон қизи
mamajonovamuxayyo7@gmail.com
Преподаватель УзГУМЯ

Аннотация. В данной статье исследована система синонимов в французском и узбекском языках. Синонимы, то есть слова, имеющие схожее или одинаковое значение, играют важную роль в расширении лексического богатства языка и делают коммуникацию более точной и разнообразной. В статье рассматриваются семантические и стилистические аспекты синонимов, их использование в зависимости от контекста, а также сходства и различия между двумя языками. Система синонимов в французском и узбекском языках имеет свои особенности, при этом каждый язык выделяется своими семантическими и стилистическими различиями. Также в статье анализируются подходы лингвистов и методологические аспекты исследования синонимов. Это исследование помогает выявить лексические сходства и различия между двумя языками и служит основой для будущих исследований в области лингвистики.

Ключевые слова: лексика, синтаксис, семантика, словосочетания, синонимия, внутренняя языковая эквивалентность, литературный язык, терминология, сопоставительный анализ, семантическое сходство и различия.

The Comparative Study of Synonyms in French and Uzbek Languages

Mamajonova Muxayyo Maxamadjon qizi
mamajonovamuxayyo7@gmail.com
teacher UzSWLU

Annotation. This article investigates the system of synonyms in the French and Uzbek languages. Synonyms, that is, words with similar or identical meanings, play an important role in expanding the lexical richness of a language and making communication more precise and diverse. The article examines the semantic and stylistic aspects of synonyms, their use depending on context,

as well as the similarities and differences between the two languages. The system of synonyms in both French and Uzbek languages has its own characteristics, with each language standing out due to its semantic and stylistic differences. The article also analyzes the approaches of linguists and the methodological aspects of synonym research. This study helps to identify lexical similarities and differences between the two languages and serves as a foundation for future research in the field of linguistics.

Keywords: *lexicon, syntax, semantics, word combinations, synonymy, internal language equivalence, literary language, terminology, comparative analysis, semantic similarities and differences.*

Sinonimlar tilshunoslikning kam o'rganilgan sohalaridan biri bo'lib, nafaqat leksikada, balki grammatikada, ayniqsa sintaksisda ham shu holat kuzatiladi. So'nggi paytlarda grammatika sinonimiyasiga bog'ishlangan ko'plab ishlanmalar yuzaga kelganiga qaramay, bu masala na teoretik, na amaliy jihatdan yetarlicha o'rganilgan deb aytish mumkin.

Sinonimlar tilning ifoda vositalari bilan boyishish manbalaridan biri sifatida qaraladi, shuning uchun u nutq madaniyatini o'rganish, adabiy til va jamoat nutqi uslubi, stilistika masalalari bilan bog'liq muammolarni ishlab chiqish uchun alohida qiziqish uyg'otadi.

Sinonimlar – bu ma'nosi bir-biriga yaqin yoki bir xil bo'lgan so'zlardir. Sinonimlar tili boyligini, uning ifoda kuchini oshiradi va muloqotni osonlashtiradi. Har bir til o'ziga xos sinonimlar tizimiga ega bo'lib, bu tizim tilning sintaktik va semantik jihatlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Fransuz va o'zbek tillari – o'zaro farqli bo'lishiga qaramay, sinonimlar tizimi jihatidan o'zaro qiyoslashni talab qiladigan tillardir. Ushbu maqolada, fransuz va o'zbek tillaridagi sinonimlar o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar o'rganiladi.

Sinonimlar ma'lum bir so'zning turli variantlari bo'lib, ular bir xil yoki yaqin ma'noni anglatadi, ammo talaffuzi va yozilishi turlicha bo'ladi. Sinonimlar tilga boyluk kiritadi, so'zlarning takrorlanishini oldini oladi va muloqotda aniqroq, rang-barang ifodalarni yaratadi.

“Bir xil ahamiyatga ega bo'lgan (umumiy mazmun yadroiga ega) sinonimlar bir-biridan farq qiladi, ular bir xil hodisalarni, aloqalarni va obyektiv realiyatdagi munosabatlarni ifodalaydi, lekin ular struktural jihatdan farqlanadi va qo'shimcha nozikliklarni uzatadi”.

Mashhur tilshunos I.V. Arnoldning fikriga ko'ra, sinonimiya barcha tillarga xosdir va tilning rivojlanganligini ko'rsatadi, chunki “boy, turli tomondan rivojlangan so'z boyligi funksional uslublar tizimini rivojlangan holda ifodalaydi, va uslublar boyligi esa so'zlarning almashtirilishi, ya'ni sinonimiyani talab qiladi” (Arnold, 1986: s. 56).

Fransuz tilida ham, o'zbek tilida ham sinonimlar ko'plab kontekstlarda ishlatiladi. Sinonimlar tilning leksik boyligini oshirib, muloqotni jonlantiradi va ko'plab adabiy asarlarda keng qo'llaniladi. Masalan, “go'zal” so'ziga o'zbek tilida “chiroyli”, “jozibali”, “maftunkor” sinonimlari mavjud. Fransuz tilida esa “beau” so'zi uchun “joli”, “magnifique”, “élégant” kabi sinonimlar mavjud.

Fransuz tilida sinonimlarning ko'pligi va turli xil so'z birikmalarining mavjudligi ajralib turadi. Fransuz tili o'zining boy va rang-barang leksik tizimi bilan mashhur bo'lib, u nafaqat fransuzcha so'zlar, balki boshqa tillardan, xususan lotin va german tillaridan kirib kelgan so'zlar orqali sinonimlar xazinasini kengaytirgan. Masalan, “grand” (katta) so'zining sinonimlari “énorme”, “immense”, “vaste” va “gigantesque” kabi so'zlar bo'lishi mumkin. Har bir sinonim o'zining ma'no va kontekstiga qarab ishlatiladi.

Fransuz tilidagi sinonimlar tahlili kontekstga va nutqning rasmiy yoki norasmiy bo'lishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, rasmiy va adabiy matnlarda “beau” so'zi “joli” so'zidan ko'ra ko'proq ishlatiladi, chunki “beau” yuqori darajada hurmat va ta'zimni bildiradi. O'zbek tilida sinonimlar tizimi o'ziga xosdir, chunki bu til turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, u o'zining sintaktik va morfologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'zbek tilida sinonimlarning ko'pligi, ularning turli shakllari va semantik farqlari ko'plab so'zlarning mavjudligini anglatadi. Masalan, “yaxshi” so'zining sinonimlari “a'lo”, “yaxshi”, “zo'r”, “chiroyli” kabi so'zlar bo'lishi mumkin.

O‘zbek tilidagi sinonimlar ko‘pincha etimologik, dialektik va stilistik jihatdan farqlanadi. Aksariyat sinonimlar o‘zbek tilining mahalliy shevalarida yoki turli ijtimoiy guruhlarda boshqacha ishlatiladi. Shuningdek, adabiy tilda sinonimlar o‘zining ko‘proq estetik jihatini namoyon etadi. Misol uchun, “tez” so‘zi o‘rniga “shoshilinch” so‘zi ishlatilishi mumkin, ammo har bir so‘zning ishlatilishi alohida kontekstga bog‘liq bo‘ladi. Ba‘zi tadqiqotchilar an‘anaviy lingvistik terminologiyadan chiqishga harakat qilib, buni boshqa fanlardan terminlar va tushunchalar yordamida amalga oshiradilar. Shunday qilib, sinonimiya ichki til ekvivalentligi namoyon bo‘lishlaridan biri sifatida qaraladi va uni tasvirlash uchun mantiq va ko‘pliglar nazariyasidan terminologik apparatni o‘zlashtiradi. Ekvivalentlik, ya‘ni sinonimiyaning mavjud bo‘lishining sharti uch xil munosabat turi: reflektivlik, simmetriya va tranzitivlikning mavjudligi hisoblanadi. Dalil sifatida “tous”, tout le monde” va “toutes les personnes” so‘zlarining sinonimiyaligi keltiriladi. Reflektivlik xususiyatiga ko‘ra, “tous” va “tout le monde” birliklari o‘zlari bilan ekvivalent bo‘lishi kerak. Shunday qilib, agar “tous” va “tout le monde” sinonimik bo‘lsa, “tout le monde” o‘ziga sinonimik, va “tous” ham “tous” bilan sinonimik bo‘ladi. Simmetriya xususiyatiga ko‘ra, agar “tous” “tout le monde” bilan ekvivalent bo‘lsa, demak, “tout le monde” ham “tous” bilan ekvivalent bo‘ladi. Tranzitivlik xususiyatiga ko‘ra, agar “tous” va “toutes les personnes” bilan sinonimik bo‘lsa, demak, “toutes les personnes” “tout le monde” bilan ekvivalent bo‘ladi.

Fransuz va o‘zbek tillaridagi sinonimlar tizimi o‘xshashliklar va farqlarga ega. Ikkala tilda ham sinonimlar ko‘pligi bilan ajralib turadi, lekin ularning semantik va stilistik jihatlari ba‘zan bir-biridan farq qiladi.

1. Semantik o‘xshashliklar: Ikkala tilda ham sinonimlar bir xil yoki juda yaqin ma‘noni anglatadi. Masalan, “go‘zal” so‘zining o‘zbek tilidagi sinonimlari “chiroyli“, “maftunkor“ bo‘lsa, fransuz tilida “beau”, “joli”, “magnifique” so‘zlari o‘xshash ma‘noni ifodalaydi.

2. Semantik farqlar: Sinonimlarning ma‘no o‘zgarishi kontekstga qarab farq qiladi. Masalan, o‘zbek tilida “zo‘r” va “a‘lo” so‘zlari “yaxshi” ma‘nosida ishlatilishi mumkin, lekin “a‘lo” so‘zi rasmiyroq va yuqori baholashni ifodalaydi, “zo‘r” esa ko‘proq norasmiy kontekstda ishlatiladi. Fransuz tilida ham shunga o‘xshash holatlar mavjud: “joli” so‘zi ko‘proq norasmiy kontekstda ishlatiladi, “magnifique” esa rasmiy va adabiy kontekstga ko‘proq mos keladi.

3. Kontekstga bog‘liq ishlatish: Ikkala tilda sinonimlar kontekstga qarab tanlanadi. O‘zbek tilida “yaxshi” so‘zi ko‘pincha kundalik nutqda ishlatilsa, fransuz tilida “beau” ko‘proq rasmiy va adabiy matnlarda ishlatiladi, “joli” esa kunlik suhbatda keng tarqalgan.

Sinonimiyaning mohiyatini izohlashda to‘g‘ri va mutanosib tushunishni topish uchun, sinonimik munosabatlarning mezonlarini belgilash zarur. An‘anaviy tilshunoslik doirasida sinonimiya nazariyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarni tahlil qilish, tadqiqotchilar o‘z ishlarida cheklangan sonli mezonlarga asoslanayotganini ko‘rsatadi. Sinonimiyaning mezonlari sifatida quyidagi belgilar taklif etiladi: 1) ifodalangan tushuncha umumiyligi; 2) fonetik umumiylikning mavjudligi yoki yo‘qligi; 3) morfologik umumiylikning mavjudligi yoki yo‘qligi; 4) o‘zaro almashtirish mumkinligi; 5) semantik tenglik; 6) semantik yaqinlik.

Sinonimiyaning belgilashda ko‘plab tadqiqotchilar yuqoridagi mezonlardan tashqari, so‘zlarning denotativ umumiyligini ham sinonimlikning sharti sifatida ko‘rsatadilar. So‘zlar denotativ umumiylikka ega, agar ular umumiy denotatga ega bo‘lsa. Shunday qilib, A.A. Reformatskiy, sinonimlar “bir xil narsani atashadi, lekin uni turli tushunchalar bilan bog‘laydilar va shu bilan nom orqali ushbu narsaning turli xususiyatlarini ochib beradilar“, deb tushuntiradi. Biroq, fe‘l leksemalarining sinonimiyasini o‘rganishda bu mezonlardan darhol voz kechish kerak, chunki fe‘lning ma‘nosi denotativ tarkibga ega emas. An‘anaviy yondashuv doirasida, sinonimiya mezonlaridan qaysilari zarur bo‘lishini, qaysilari yetarli va qaysi belgilarning fakultativ sifatida belgilanishini aniqlash bo‘yicha fikrlar tadqiqotdan tadqiqotga o‘zgarib turadi. Shuning uchun, an‘anaviy sinonimiyaning mohiyatini tushunish uchun taklif qilingan mezonlarni ko‘rib chiqamiz.

An‘anaviy ravishda, sinonimiyaning zaruriy mezonlaridan biri sifatida ifodalangan tushunchaning umumiyligi belgilanishi mumkin. Shunday qilib, O‘zbekistonning yetakchi

sinonimiyaga bag'ishlangan lug'atining mualliflari va uning tahrirchilari sinonimlarni "bir xil tushunchani ifodalovchi so'zlar, shuning uchun ular ma'no jihatidan teng yoki juda yaqin" deb ta'riflaydilar.

An'anaviy yondashuv doirasida boshqa lingvistlar, tushunchalar umumiyligini sinonimiyaning asosiy sharti sifatida rad etadilar, chunki ular fikriga ko'ra, tushuncha aloqasi, garchi so'zning leksik ma'nosining bir tarkibiy qismi bo'lsa-da, so'zning til kommunikatsiyasi vositasi sifatida ishlashida alohida ahamiyatga ega emas. Sinonimiyani ifodalangan tushunchalar umumiyligi sifatida tushunishga qarshi turib, V.T. Vilyuman, bunday yondashuvda "so'z birliklari, semantik umumiylikka ega bo'lganlar, semantik umumiylikka ega bo'lmaganlar bilan birlashtirilishi xavfi borligini" ogohlantiradi. Sinonimiya – semantik-ma'no hodisasi deb hisoblaydi (Vilyuman, 1950: s. 149). Misol sifatida semantik umumiylikka ega bo'lmagan so'zlarning birlashishi uchun, tadqiqotchi "grand" va "large" sifatida ikkita sifatni keltiradi. Shuningdek, bu mezonni S.G. Berejan ham rad etadi, chunki uning fikriga ko'ra, u "tilshunoslikda aniq belgilash imkoniyatini beradigan hech qanday material lingvistik belgi"ga ega emas. Bundan tashqari, tadqiqotchi, amalda ko'pincha "har bir so'z qanday tushuncha ifodalashini aniqlash qiyin"ligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchi, chunki "ifodalangan tushunchalar umumiyligi" mezonni mantiqiy, tilshunoslik emas, deb hisoblaydi va shuning uchun bu mezon sinonimiyani til hodisasi sifatida belgilashda qabul qilinmaydi (Berejan, 1973: s.372).

Tilning leksik boyligi ko'p jihatdan uning sinonimikasi tomonidan ta'minlanadi. Haqiqatan ham, predmet, haqiqat yoki xususiyat haqida tushuncha ko'plab variantlarga, nozikliklarga ega. Sinonimikaning rivojlanishi tildagi imkoniyatlarning boyishi va uning ifodali imkoniyatlarining yaxshilanishi yo'llaridan biri hisoblanadi, shuningdek, bu tilda stilistik tahlil va leksikaning stilistik farqlanishini ta'minlovchi yoki aks ettiruvchi nutq uslublarining mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbek va fransuz tillarida ko'p sinonimlar mavjud, ammo yangi sinonimlarning paydo bo'lish jarayoni to'xtamaydi. Bu bir qator sabablarga bog'liq. Ulardan eng asosisi insonning allaqachon ma'lum bo'lgan voqeliklarni yanada to'liq tushunishga, yangilikni kashf etishga va unga nom berishga intilishidir. Misol uchun, voqelikni har tomonlama o'rganish jarayonida quyidagi so'zlar sinonimiyasi rivojlanib borgan: dunyo, yer, koinot, yorug'lik, yer shari, umumiy ma'noda planiyeta va undagi mavjud barcha narsalar, ammo ma'no nuanslari bilan.

Sinonimlarni klassifikatsiya qilish muammosi. Sinonimlar ma'no jihatdan to'liq mos yoki qisman mos bo'lishiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

- *To'liq (absolyut);*
- *Qisman (nisbiy).*

To'liq sinonimlar, ma'nosi to'liq mos keladigan sinonimlar juda kam uchraydi va asosan ilmiy terminologiyada ko'proq ishlatiladi. Misollar: *la patrie – le pays natal* (vatan), *permettre – autoriser* (ruxsat bermoq).

Definitsion metodikada, o'rganilayotgan so'zlarning lug'at ta'riflari bir-biri bilan solishtiriladi. Eng yuqori darajadagi obyektivlikka erishish va bir so'zni boshqa so'z orqali yoki ikkita so'zni umumiy komponent orqali ta'riflash chastotasini hisobga olish uchun, iloji boricha ko'proq lug'atlardan ma'lumotlarni tahlil qilish kerak.

Shu tariqa, sinonimlar ularni ajratib turadigan konnotativ ma'nolar turiga qarab tasniflanishi mumkin. Ushbu yondashuv juda foydali bo'lib, sinonimlarning ma'nolaridagi eng nozik farqlarni aniqlash imkonini beradi. Bu yerda konnotativ ma'nolarning quyidagi turlari ajratiladi:

- belgin so'zning intensivligi darajasini ko'rsatish (*plaire – adorer – aimer – admirer – s'extasier*);
- jarayonning davomiyligini ko'rsatish (*s'enflammer – flamber*);
- emotsional ma'no (*regarder – fixer les yeux – dévisager*);
- baholash ma'no (*connu – renommé – réputé – populaire*);
- sabab ma'no (*grelotter – trembler*);
- harakat qilish usulini ko'rsatish (*se promener – aller à l'étape large – aller au trot*);

- qo‘shimcha sharoitlarni ko‘rsatish (*pier – scruter*);
- stilistik konnotatsiyalar (*abandonner – lâcher* (oddiy) – *frauder – filouter* (oddiy) – *tuer – opprimer* (rasmiy) – *s’enfuir – filer* (oddiy) – *la pension – la retraite* (harbiy)).

Hozirgi zamon tilshunosligida material deganda, aloqa qilayotgan shaxslar tomonidan tovush to‘lqinlari va grafik belgilarining ishlab chiqarilishi tushuniladi, ular o‘z-o‘zidan ma’no anglatmaydi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslik til tizimi va ongning uzviy bog‘liqligini tan oladi, bu tizim, shuningdek, bilim oluvchi ongning bir elementi hisoblanadi. Shunday qilib, leksik ma’noning tushunchaviy komponentidan voz kechish, asoslanmagan deb hisoblanadi. Demak, sinonimiyani aniqlashda so‘zlarning tushunchaviy umumiylik mezonini hisobga olish kerak.

Fransuz va o‘zbek tillaridagi sinonimlarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikkala til o‘zining semantik va stilistik boyligi bilan ajralib turadi. Sinonimlar tili boyligini oshirib, muloqotni yanada rang-barang va mazmunli qiladi. Ikkala til o‘rtasidagi sinonimlarning semantik o‘xshashliklari va farqlari ularning ijtimoiy va madaniy kontekstlarida ham farqlanadi. Bu tadqiqot, fransuz va o‘zbek tillarining leksik tizimini chuqurroq o‘rganish uchun muhim poydevor yaratadi.

Fransuz va o‘zbek tillarida sinonimlarni qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ikkala tilda ham sinonimiya hodisasi keng tarqalgan bo‘lib, tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini aks ettiradi. O‘zbek tilida sinonimiya hodisasi juda keng ma’noda talqin qilinadi, so‘zlarning funksional-semantik sinonimlari bo‘lishi mumkin bo‘lgan til birliklari o‘ndan ortiq guruhlarga ajratib o‘rganiladi. Fransuz tilida ham sinonimlar so‘z boyligini oshirish va fikrni aniqroq ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.

Ikkala tildagi sinonimlarning qiyosiy tahlili ularning semantik, uslubiy va madaniy xususiyatlarini ochib beradi. Maqolada sinonimlarning leksik tarkibi, grammatik tuzilishi va qo‘llanilishi o‘rganiladi. Shuningdek, tarjima jarayonida sinonimlardan foydalanish masalalari ham ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fransuz va o‘zbek tillarida sinonimlar ma’lum semantik o‘xshashliklarga ega bo‘lish bilan birga, ularning qo‘llanilishida madaniy va uslubiy farqlar ham mavjud. Bu farqlar til egalarining dunyoqarashi, turmush tarzi va qadriyatlarini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, fransuz va o‘zbek tillarida sinonimlarni qiyosiy o‘rganish tilshunoslik, tarjima nazariyasi va madaniyatlararo muloqot uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot ikki til o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, shuningdek, tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Арнольд И. В. Лексикология английского языка, Москва, 1959, стр. 276. Арнольд И.В. Эквивалентность как лингвистическое понятие /Иностранные языки в школе. М., 1986, №1.-С.56.
2. Бережан С.Г. Семантическая эквивалентность лексических единиц (1973);
3. Вилюман В.Г. Английская синонимика Москва (1980)
4. Chandler, D. Semiotics: The Basics. New York: Routledge. (2007).
5. Dubois, J., & Dubois, B. Dictionnaire des synonymes. Paris: Larousse (2015).
6. Mukhammadaliyevna, N. N. (2024). THE THEORY OF PHRASEOLOGICAL DERIVATIVES: CONCEPT, RESEARCH, PROSPECTS. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(05), 672-674.
7. Nikolayev, A. P. Sinonimlar va ularning semantik o‘zgarishlari. Moskva: Yazyki slavyanskoy kultury (2005).
8. Shodiev, N. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: Fan. (2008)
9. Sultonov, I. O‘zbek tilining leksikologiyasi. Tashkent: O‘zbekistan Milliy Ensiklopediyasi. (2010).
10. Zaripov, M. Fransuz tili leksikologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi. (2013).